



Valyuta operatsiya va intervensiyalari strategiyasi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

ICHKI VALYUTA BOZORI | PUL-KREDIT SIYOSATI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-2030-yillarga mo'ljallangan ichki valyuta bozoridagi valyuta operatsiya va intervensiyalari

STRATEGIYASI

I bob. Umumiy qoidalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) ichki valyuta bozoridagi valyuta operatsiya va intervensiyalari strategiyasi (keyingi o'rinlarda – Strategiya) O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi va “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu Strategiya Markaziy bankning valyuta operatsiya va intervensiyalarini amalga oshirish maqsadlari, tamoyillari hamda ular bo'yicha kommunikatsiya qilishning asosiy yondashuvlarini belgilaydi.

Strategiya Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi ishtirokining bir tomoni milliy valyuta – so'mda amalga oshiriladigan operatsiya va intervensiyalariga nisbatan qo'llaniladi.

1. Mazkur Strategiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

valyuta operatsiyalari – Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan qimmatbaho metallarni xalqaro bozorlarda sotishdan tushgan chet el valyutasidagi mablag'larni sotish va Markaziy bank mijozlariga chet el valyutasi xaridi va sotuvi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalari;

valyuta intervensiyalari – Markaziy bankning ichki valyuta bozorini tartibli va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, milliy valyuta almashuv kursining keskin tebranishlarini yumshatish hamda xalqaro zaxiralar likvid miqdorining maqbul darajasini ta'minlash maqsadida amalga oshiradigan operatsiyalari;

mijozlar – Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Markaziy bank tasarrufidagi tashkilotlar va boshqa muassasalar;

qimmatbaho metallar – mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olingan oltin, kumush va boshqa metallar;

birjadan tashqari valyuta bozori – Markaziy bankning mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali operatsiyalarni amalga oshiradigan valyuta bozori;

xalqaro zaxiralar likvid miqdorining maqbul darajasi – mamlakatning tashqi qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyatini saqlash, importni moliyalashtirish va kutilmagan tashqi iqtisodiy shoklarga bardoshlilikni ta'minlash uchun yetarli deb hisoblangan, Markaziy bankning xalqaro zaxiralari likvid miqdori.

2. Mazkur Strategiya Markaziy bankning narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadiga muvofiq, inflyatsion targetlash rejimi tamoyillari asosida valyuta operatsiya va intervensiyalarining maqsadlari, tamoyillari va amalga oshirish qoidalarini belgilaydi hamda ichki valyuta bozorini rivojlantirish va suzuvchi valyuta almashuv kursi rejimini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Strategiya quyidagi omillarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi:

a) Markaziy bankning narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha vazifalari;

b) Markaziy bankning pul-kredit siyosati operatsiyalari;

d) Markaziy bankning xalqaro zaxiralarni boshqarish bo'yicha investitsiya siyosati;

e) umumiy makroiqtisodiy jarayonlar, shu jumladan, fiskal shart-sharoitlar va kapital harakatini tartibga solish chora-tadbirlari.

II bob. Strategiyaning asosiy maqsad va tamoyillari

4. Markaziy bankning valyuta operatsiya va intervensiyalarini amalga oshirishi bir vaqtning o'zida bir yoki bir nechta maqsadlarni bajarishga qaratilishi mumkin. Ushbu maqsadlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Markaziy bank boshqaruvi har bir holatda ustuvorliklar to'g'risida qaror qabul qiladi.

5. Markaziy bank ichki valyuta bozorida quyidagi maqsadlarda faoliyat yuritadi:

a) valyuta operatsiyalarini amalga oshirish;

b) Markaziy bankning xalqaro zaxiralarni boshqarish bo'yicha investitsiya siyosatiga asosan xalqaro zaxiralar likvid miqdorining maqbul darajasini ta'minlash;

d) ichki valyuta bozorining tartibli va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, shu jumladan, yirik va/yoki kutilmagan chet el valyutasi talab va taklif omillari ta'sirini yumshatish;

e) almashuv kursining keskin tebranishlarini yumshatish.

6. Markaziy bankning valyuta operatsiya va intervensiyalari bo'yicha qarorlari quyidagi tamoyillar asosida qabul qilinadi:

a) narxlar barqarorligini inflyatsion targetlash rejimi doirasida, suzuvchi valyuta almashuv kursi sharoitida ta'minlanishi;

b) valyuta operatsiyalari makroiqtisodiy sharoitlar va Markaziy bankning inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq valyuta almashuv kursining uzoq muddatli fundamental trendini o'zgartirishga qaratilmasligi;

d) valyuta kursi yoki uning o'zgarishi Markaziy bank pul-kredit siyosatining maqsadli ko'rsatkichi sifatida belgilanmasligi;

e) valyuta operatsiya va intervensiyalari inflyatsion targetlash rejimining samarali faoliyatiga hamda asosiy stavkaning pul-kredit siyosati transmission mexanizmidagi roliga putur yetkazmasligi;

f) valyuta operatsiya va intervensiyalari ichki valyuta bozorining tartibli rivojlanishi va bozor mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;

g) valyuta operatsiya va intervensiyalari iqtisodiyotdagi valyuta xatarlari va nomutanosibliklarning tizimli ravishda to'planishiga olib kelmasligi;

h) 5.a badda belgilangan maqsad bo'yicha amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining davriyligi faqat mijozlarning ehtiyojlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan qimmatbaho metallarning xalqaro bozorlarda sotilishi va ichki valyuta bozorida chet el valyutasiga bo'lgan talabning mavsumiyligi bilan bog'liq bo'lishi;

i) yuqoridagi bandlarga zid bo'lmagan holda valyuta operatsiyalari va intervensiyalarining davriyligi ichki valyuta bozorining rivojlanishi va iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari (dollarlashuv darajasi, valyuta kursi o'zgarishining inflyatsiyaga ta'siri, kapital harakati holati hamda moliya bozorining rivojlanish bosqichi)ga moslashib borishi;

j) valyuta operatsiyalari va intervensiyalari hajmi va davriyligini moliya bozorining rivojlanishi, dollarlashuv darajasining pasayishi, kapital harakatining liberallasuvi, almashuv kursi o'zgarishining inflyatsiyaga ta'sirining kamayishi hamda xalqaro zaxiralar likvid miqdorining maqbul darajasini ta'minlanishi sharoitlarida qisqartirib borilishi.

III bob. Valyuta operatsiya va intervensiyalarining o'ziga xos xususiyatlari

7. Markaziy bank valyuta operatsiyalarini valyuta almashuv kursi yo'nalishiga ta'sir ko'rsatmagan holda, ma'lum davriylikda oldindan e'lon qilinadigan muddatlarga muvofiq amalga oshiradi.

8. Xalqaro zaxiralar likvid miqdorini maqbul darajasini saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan valyuta intervensiyalari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilangan davriylikda amalga oshiriladi.

9. Xalqaro zaxiralar likvid miqdorining maqbul darajasi Markaziy bank boshqaruvi qarori bilan Markaziy bankning xalqaro zaxiralarni boshqarish bo'yicha ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

10. Milliy valyuta almashuv kursining keskin tebranishlarini yumshatish maqsadida o'tkaziladigan valyuta intervensiyalari bozor tamoyillari asosida shakllanadigan valyuta almashuv kursi yo'nalishiga ta'sir qilmaydigan holda amalga oshiriladi.

IV bob. Valyuta operatsiya va intervensiyalarini amalga oshirish mexanizmi

11. Valyuta operatsiya va intervensiyalari bo'yicha qaror qabul qilish va hisobdorlik jarayonlari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilangan ichki hujjatga asosan belgilanadi.

12. Markaziy bank valyuta operatsiya va intervensiyalari maqsadlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida sifat va miqdor ko'rsatkichlari tahlilidan foydalanadi.

Mazkur sifat va miqdor ko'rsatkichlari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilangan ichki hujjatda qayd etiladi va davriy ravishda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

13. Ichki valyuta bozoridagi valyuta operatsiyalari valyuta birjasi va birjadan tashqari valyuta bozorlarida amalga oshirilishi mumkin.

14. Markaziy bank tomonidan ichki valyuta bozoridagi valyuta intervensiyalari faqat valyuta birjasida amalga oshiriladi.

V bob. Valyuta operatsiya va intervensiyalari bo'yicha kommunikatsion siyosat

15. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiya va intervensiyalari hamda ularga oid tahliliy ma'lumotlar Markaziy bank kommunikatsion siyosatiga muvofiq ommaviy bayonotlarda, press-relizlarda, davriy nashrlarda e'lon qilib boriladi.